

BADIIY TAKRORLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Imamova Gulnora Talibovna

Jizzax davlat pedagogika
universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy takrorlarning lingvopoetik xususiyatlari ularning badiiy estetik vosita ekanligi hassos shoir Hamid Olimjon ijodi misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: badiiy takror, lingvopoetika, sema, leksema, emostional-eksperssiv, badiiy mahorat, raddul-matla.

Abstract: In this article, the linguopoetic characteristics of artistic repetitions and their artistic aesthetic means are analyzed on the example of the work of the sensitive poet Hamid Olimjon.

Key words: artistic repetition, linguopoetics, sema, lexeme, emotional-expressive, artistic skill, raddul-matla.

Takror (badiiy takror) tilning badiiy tasvir vositalarining ikkinchi sintaktik figuralar turiga kiradi. Bizga ma'lumki, badiiy takror grammatik takrordan jiddiy farq qiladi: 1. Badiiy takror ta'sir ma'nosini ifodalaydi, grammatik takror esa grammatik ma'no ifodalab, odatda ko'plik ma'nosiga ega bo'ladi.

2. Badiiy takror turli xil ko'rinishlarda voqelanishi mumkin, ohang bilan ajratiladi va ortada vergul qo'llanadi: *tinimsiz, tinimsiz harakar qildi; juda yaxshi, juda yaxshi, juda yaxshi deyapmanku; ketdi, ketdi, ketyapti...* kabi.

Badiiy takror badiiy matnlarda eng faol qo'llanuvchi tasviriy vositalardan hisoblanadi. Shu asnoda barcha shoir, yozuvchilarning barcha turdagi badiiy asarlarida

juda ko‘p qo‘llaniladi. Hassos shoir Hamid Olimjon she‘riyatida ham takrorlardan foydalanishga alohida e‘tibor qilganligi kuzatiladi. Shoirning jozibador kuchi, badiiyligini, ta‘sirchanligini oshirishda takror alohida o‘rin egallaydi. “O‘rni bilan takrorlangan so‘zlar ko‘pincha badiiy ta‘sirchanlikning g‘oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo‘la oladi”¹ Shoir va yozuvchilar tasvirlanayotgan voqea- hodisalarning nazarda tutilgan tomoniga kitobxonning diqqatini tortish, uni bo‘rtiribroq ko‘rsatish uchun yoki ma‘lum narsalarni sinab ko‘rsatish niyatida ko‘proq she‘riy asarlarda ayrim tovush yoki tovushlar birikmasiga, so‘z va so‘z birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg‘u beriladi. Hamid Olimjonning “Holbuki tun ...” nomli she‘rida ham shoir takrorlardan mohironalik bilan so‘zlarni marjon kabi tizadi.

“ **Shag‘irlyaydi** betinim daryo

Shag‘irlyaydi vahm to‘lgan jar,

Shag‘irlyaydi qorong‘i dunyo,

Shag‘irlyaydi vodiy, daralar.

Shag‘irlyaydi ... Bermaydi uyqu...”²

Ko‘rinadiki, takror “muayyan g‘oyaviy- badiiy niyatga xizmat qilish, ... timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga, joziba, jilo, ta‘sirchanlik bag‘ishlash.”³ maqsadida misralar tarkibida qo‘llaniladi. Shoir ijodida a) aynan so‘zning takrorlanishini ko‘rishimiz mumkin:

O‘sha jilva va **o‘sha** otash

O‘sha ko‘rki, surgun, xayolkash

O‘sha imo, **o‘sha** ishora

Etaboshlar yurakni pora (“Sog‘inganda”)

b) *so‘z birikmasi aynan takrorlanishi:*

Seni ko‘rsa ochilsin gullar,

Seni ko‘rsa yonsin bulbullar.

¹ To‘xliyev .B O‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000- yil 268- bet.

² H.Olimjon “ Tanlangan asarlar O‘ZSSR davlat nashriyoti – 1951- yil 50- bet.

³ Hojiahmedov .A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya” – Toshkent: Sharq.- 1998. 4-5- bet.

Seni ko‘rgan bari topsin jon,

Sen yurgan yer ko‘masin xazon. (“Hulkarkarning she’ri”)

Har bir misrada qo‘llangan takrorlar o‘ziga xos musiqiylik va o‘ziga xos ma’no qirralarini ifodalab kelmoqda.

Har bahorda shu bo‘lar takror,

Har bahor ham shunday o‘tadi...

Har bahorga chiqqanda yakkash,

Baxtim bormi deya so‘rayman. (“O‘rik gullaganda”)

Ushbu misralarda takrorlarning voqelanishi birinchidan estetik zavq bersa, ikkinchidan, ohanrabolik, badiiy ta’sirchanlikni oshirish maqsadida hassos shoir Hamid Olimjonning so‘z va jumla takrorlaridan unumli va o‘rinli foydalanganligini biz yuqoridagi misralarida uchratamiz. Shoir she’riyatida yana bir usul - misra takrorlari nisbatan ko‘p uchraydigan hodisadir. Klassik poetikada bu raddul – matla istilohi bilan ataladi. Raddul- matla – g‘azal yoki qasida matlasidagi misralardan birini keyingi baytlardan biri tarkibida yoki maqta’da muayyan maqsad bilan yangicha uslubiy maqsadda takrorlash san’atidir. Demak, raddul matla’ faqat g‘azal va qasidaga xos san’at turi ekan. H.Olimjonning misra takrorlarini bunday atab bo‘lmaydi. Umumiy olganda esa mumto adabiyotda badiiy san’atlarning ko‘pchiligi aruzda ifodalash mumkin deyish mushkul. Shuning uchun H.Olimjonning mazkur usulini misra takrori degan istiloh bilan nomlaymiz.

Ko‘rinadiki, takror ham lingvopoetikada muhim o‘rin egallaydi va asar g‘oyasini ochib berishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Har bir takroriy qo‘llangan so‘z o‘zining yakka holda takrorlanmasdan qo‘llanishiga nisbatan yangi ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi va shu asosida uning semantik doirasi ham yana kengayadi, hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorlik yanada ortadi. Bu esa takrorlash usulining naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘xliyev .B O‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000- yil 268- bet.
2. H.Olimjon “ Tanlangan asarlar O‘ZSSR davlat nashriyoti – 1951- yil 50- bet.
3. Hojiahmedov .A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” – Toshkent: Sharq.- 1998. 4-5- bet.
- 4.H.Olimjon “ Mukammal asarlar to‘plami” Toshkent- 1981.
- 5.H.Jamolxonov “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent– 2005
- 6.D.Lutfullayeva, R. Davlatova , M.Saparniyozova Toshkent– 2008.